

**URUSH ADABIYOTIDA FOLKLOR MOTIVLARINING QAYTA JONLANISHI:
INGLIZ VA O'ZBEK BALLADALARI AN'ANALARI****Mahmudova Nilufar**

Mustaqil tadqiqotchi.

mahmudovanilufar800@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19135194>

Annotatsiya. Ushbu maqolada birinchi va ikkinchi jahon urush davri o'zbek va ingliz adabiyotidagi ballada janrining lirik-epik tabiati qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi.

Tadqiqotda Hamid Olimjonning "Jangchi Tursun" balladasidagi epik ulug'vorlik va milliy folklor an'analari (Alp obrazi), Zigfrid Sassun ijodidagi urush realligining ironik talqini hamda Maqsud Shayxzoda balladalarini misolidagi intellektual tahlil masalalari o'zaro tahlil qilinadi. Nortrop Frayning mimetik modlar nazariyasi va Pol Fassellning adabiy tartib tushunchalariga tayanilgan holda, o'zbek balladasidagi qahramonlik pafosi va ingliz balladasidagi demifologizatsiya (afsonalardan xoli qilish) jarayonlari ilmiy asoslab beriladi.

Shuningdek, Jamol Kamol asarlarida urush fojiasining falsafiy-psixologik tavsifi va ballada janrining janriy transformatsiyasi masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ballada, urush adabiyoti, epik ulug'vorlik, mimetik mod, ironik mod, demifologizatsiya, folklor motivlari, intellektual tahlil, adabiy tartib, lirik-epik sintez.

Аннотация. В данной статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуется лиро-эпическая природа жанра баллады в узбекской и английской литературе периодов Первой и Второй мировых войн. В исследовании сопоставляются вопросы эпического величия и национальных фольклорных традиций (образ Алпа) в балладе Хамида Олимджана "Боец Турсун", ироническая интерпретация военной реальности в творчестве Зигфрида Сассуна, а также интеллектуальный анализ в балладах Мақсуда Шайхзаде. На основе теории миметических модов Нортропа Фрая и концепции литературного порядка Пола Фасселла научно обосновываются героический пафос в узбекской балладе и процессы демифологизации в английской балладе. Кроме того, освещаются вопросы философско-психологического описания трагедии войны и жанровой трансформации баллады в поэмах Джамала Камала.

Ключевые слова: Баллада, военная литература, эпическое величие, миметический мод, иронический мод, демифологизация, фольклорные мотивы, интеллектуальный анализ, литературный порядок, лиро-эпический синтез.

Abstract. This article explores the lyric-epic nature of the ballad genre in Uzbek and English literature during the First and Second World Wars from a comparative-typological perspective. The study compares the issues of epic grandeur and national folklore traditions (the Alp image) in Hamid Olimjon's ballad "Fighter Tursun", the ironic interpretation of war reality in the works of Siegfried Sassoon, and the intellectual analysis in Maqsud Shayxzoda's ballads. Drawing on Northrop Frye's theory of mimetic modes and Paul Fussell's concept of literary order, the article scientifically substantiates the heroic pathos in the Uzbek ballad and the processes of demythologization in the English ballad. Furthermore, it highlights the philosophical-psychological portrayal of war tragedy and the genre transformation of the ballad in the poems of Jamol Kamol.

Keywords: Ballad, war literature, epic grandeur, mimetic mode, ironik mode, demythologization, folkloric motifs, intellectual analysis, literary order, lyric-epic synthesis.

Insoniyat tarixidagi eng og'ir va dahshatli sinov bo'lmish jahon urushi yillari badiiy tafakkurda keskin burilish yasadi. Bu kabi dahshatli urush, uning realligi hamda inson qismati masalalari adabiyotda eng qadimgi janrlardan biri bo'lmish balladaning qayta jonlanishiga sabab bo'ldi. Ballada – hissiyotlarga boy, lirik hamda epik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan adabiy janr¹. U she'riy yo'l bilan aytiladigan hikoyadir. Urush davrida, ballada shunchaki folklor namunasigina bo'lib qolmay, balki muallifning individual uslubi hamda uning milliy dunyoqarashini ifodalovchi mualliflik balladasi (literary ballad) sifatida namoyon bo'ldi.

Mualliflik balladasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan folklor an'alariga tayanadi, ikkinchi tomondan esa zamonning ijtimoiy-psixologik manzarasini ochib beradi.

Ballada rivojiga H. Olimjon, Oybek, G'. G'ulom, M. Shayxzoda, Uyg'un, Shuhrat, H. G'ulom, T. Fattoh, M. Boboyev, Mirmuhsin kabi o'zbek shoirlari ham o'zlarining hissalarini qo'shganlar.

Maqolada o'zbek va ingliz urush adabiyoti namunalarini izchil o'rganishda bir necha muhim ilmiy yondashuvlarga tayanildi. Adabiyotshunos olim To'xta Boboyev aytib o'tganidek, adabiyotshunoslikning diqqat markazida doimo "mumtoz asarlar va ulug' so'z ustalarining ijodiyoti"² turadi va u orqali badiiy adabiyotning ichki qonuniyatlari kashf etiladi. Ballada janri aynan hayotning keskin hamda dramatik lahzalarini so'z orqali badiiy o'zlashtirish quroli bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari adabiyotshunos Sh. Rizayev ham o'zbek adabiyotidagi qahramon tushunchasini tadqiq etadi va jadidlar davrida avj ola boshlagan milliy xarakter hamda fojiaiylik konsepsiyalari birlashganiga alohida e'tiborini qaratadi³ Bu kabi izchil yondashuv urush davri balladalarini qahramonlarining, xususan, Hamid Olimjon asarlaridagi epik botirlik hamda Shayxzoda she'riyatidagi ruhiy matonatning ichki ildizlarini tushunishga o'z hissasini qo'shadi.

O'zbek adabiyoti kontekstida Hamid Olimjonning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan zo'r muhabbati uning urush davri balladalarini jumladan, "Jangchi Tursun" uchun asos bo'lgan. Shuni ta'kidlash joizki, "Jangchi Tursun" balladasidagi epik ruh va qahramonlik pafosi H. Olimjonning bolalik davri va uning ko'rgan tarixiy voqealar bilan chambarchas bog'liq. Akademik Naim Karimov fikriga ko'ra, Hamid Olimjon qanday davrda yashamasin, u o'zining ajoyib va benazir ovozi va she'riy quvvatini asrb qoluvchi shoirlar sirasiga kiradi. Shoir o'zining noyob iste'dodini Naim Karimov tug'ma zukkolik deya ta'rif beradi. Unda shoirona qalb borligini ta'kidlab, she'rlarida chuqur ma'no borligini alohida qayd etadi⁴.

Ballada hamda uning epik (syujetli) xususiyatini tushunishda akademik V.M. Jirmunskiyning turkiy qahramonlik eposidagi ideal qahramon va pahlavonlik (Alp) an'analari haqidagi nazariyasi metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi⁵. Shoir ushbu eposni tadqiq etishi mobaynida, Alp obrazi barcha ma'naviy va jismoniy qudratni o'zida mujassam etgan siymo sifatida ta'riflaydi. Jirmunskiyning fikricha bu obraz shaxsiy manfaatlaridan voz kechgan, xalq, jamoa va millat mas'uliyatlarini o'z bo'yniga olgan epik qahramondir⁶.

O'zbek adabiyotshunosligida ballada janrini, uning lirik-epik tabiati hamda folklor bilan qanday aloqasi borligini tadqiq etgan M. Ibrohimov, ballada janrining bosh belgisi sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

—ballada syujetining keskinligi

¹ Ibrohimov M. O'zbek balladalarini. – Toshkent: Fan, 1974. – B. 13.

² Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 9

³ Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 45.

⁴ Karimov N. Hamid Olimjon. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1979. – B. 3-7.

⁵ Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л.: Наука, 1974. – С. 24-28

⁶ Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л.: Наука, 1974. – С. 136–142.

–qahramon vaziyatining dramatik vaziyatlarda ochilishi⁷.

Olimning o‘ylashicha, balladada tasvir etilayotgan har bir detal yoki voqealar rivoji shunday yaratilishi kerakki, ular emotsional hayajon uyg‘ota olishi kerak kishida. Xuddi ana shunday xususiyatni H. Olimjon o‘zining “Jangchi Tursun” balladasida juda chiroyli ko‘rsatib bergan. Ya’ni, shoir qahramonning jang maydonidagi dramatik holati lirik pafos orqali o‘quvchiga yetkazgan va shu narsa asarning epik jihatdan ma’naviy ulug‘vorligini oshiradi.

Shuningdek, I. G‘afurov M. Shayxzoda balladalarini misolida urush davri she‘riyatidagi dramatism va intellektual tahlil masalalarini yoritib, o‘zbek balladasining jahon adabiyoti andozalari bilan bo‘ylasha olishini isbotlagan⁸. O‘zbek balladasini faqat epik pafos (balandparvozlik) bilan cheklab bo‘lmaydi. I. G‘afurov tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, M. Shayxzoda urushni umumiy raqamlar yoki shiorlar bilan emas, balki bitta insonning ko‘zi bilan ko‘rsatadi⁹. Urushning fojiasi – bu buzilgan uylar emas, balki o‘sha urush ta’sir ostida qolgan insonning ruhiyatidagi sinishlardir. Urush degan ulkan va dahshatli voqelik bitta askar yoki bitta qahramonning taqdiridan o‘tib, o‘quvchiga yetib keladi. Shayxzoda balladalarini shunchaki hayajonli she‘rlar emas, balki “Nega inson insonni o‘ldirishi kerak?”, “Urushning ortida qanday ma’naviy tanazzul yotibdi?” degan savollarga shoir mantiqiy javob izlaydi. Bu juda chuqur tahlil. Hissiyotlarga berilinmagan, aql va falsafa bilan qilingan tahlildir. Bunda shoir kitobxonni shunchaki yig‘latibgina qolmaydi, balki urushning mohiyati haqida chuqur o‘ylashga majbur qiladi. Ibrohim G‘afurov o‘zining ushbu monografiyasida Maqsud Shayxzodaning “Kaptan Gastello” balladasini intellektual tahlil va inson ruhiyatidan kelib chiqib tahlil qiladi. Shoir bu asarda urushni shunchaki jang emas, balki hayot va mamot o‘rtasidagi falsafiy tanlov sifatida ko‘rsatadi:

...O‘lim nima o‘zi? – bir zumlik qorong‘u,
Yo mangu uyquning ilk bo‘sag‘asimi?
Nahotki, yer yuzin qoplagan bu g‘uv,
Insoniyat aqliy tanazzul sasimi?¹⁰

Mana shu ikki xususiyat – urushni bitta shaxs dardi sifatida ko‘rsatish va unga falsafiy-intellektual yondashish – o‘zbek balladasini jahon adabiyotidagi eng yaxshi namunalar (masalan, Zigfrid Sassun yoki boshqa G‘arb shoirlari ijodi) bilan bir qatorga qo‘yishga imkon beradi.

O‘zbek adabiyotida urush mavzusidagi epik ko‘lamni kengaytirishda Jamol Kamol ijodi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shoirning “Rajab Ashurov”, “Quyosh chashmasi”, “Armon”, “Eshikda oy to‘lqini” kabi dostonlari urush realligini badiiy talqin etishda ham Hamid Olimjonga xos epik ulug‘vorlikni, ham Shayxzodaga xos intellektual tahlilni o‘zida birlashtiradi. Agar Hamid Olimjon balladasida qahramonning o‘limi shon-sharaf sifatida ideallashtirilgan bo‘lsa, Jamol Kamol dostonlarida urush keltirgan ma’naviy va jismoniy armonlar insoniyat fojiasi sifatida chuqur falsafiy mushohada qilinadi. Xususan, uning asarlarida urushning shafqatsiz zarbalari ostida qolgan inson qismati orqali hayot va o‘lim, g‘alaba va yo‘qotish o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar yoritiladi.

⁷ Ibrohimov M. O‘zbek balladalarini. – Toshkent: Fan, 1974. – B. 12.

⁸ G‘afurov I. Shayxzoda. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970. – B. 68-72

⁹ Гафуров И. Шайхзода (Адабий-танкидий очерк). – Тошкент: Гафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б. 54–56.

¹⁰ Shayxzoda M. Tanlangan asarlar. Uch jildlik. 1-jild: She‘rlar va balladalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1971. – B. 154.

Bu esa o‘zbek urush adabiyotining sof qahramonlik bosqichidan insoniy tuyg‘ularning murakkab tahlili bosqichiga ko‘tarilganidan dalolat beradi. Xususan “Armon” she‘rida:

Urush – bu shunchaki maydonmas, o‘g‘lim,

Urush – bu armondir, urush – bu o‘lim.

Sening mardligingdan qolgan bu dunyo,

Bizning g‘amimizdan bo‘lgandir bunyod¹¹.

Shoir urushni shunchaki g‘alabali jang maydoni emas, balki bitmas-tuganmas armon va o‘lim fojiasi sifatida ta‘riflaydi. Shoir bugungi tinch dunyo askarlarning mardligi hamda qurbon bo‘lganlarning g‘ami evaziga bunyod bo‘lganini ta‘kidlab, qahramonlik ortidagi insoniy iztirobni birinchi o‘ringa olib chiqadi. Bu tahlil o‘zbek urush adabiyoti sof madh etish bosqichidan inson qismati va ruhiy fojiasini tadqiq etuvchi falsafiy-psixologik bosqichga ko‘tarilganini isbotlaydi.

G‘arb adabiyotshunosligida P. Fassell urushdagi holatlarni, parokandaliklarni hamda dahshatni badiiy aks ettirishda adabiy tartibga solish (literary order) tushunchasini markazga qo‘yadi. Uning qarashlariga ko‘ra, frontdagi voqelik shunchalik parokanda va tushunarsizki, u faqat adabiy janrlar bo‘lmish ballada, mif va pastoral filtri orqali o‘tgandagina ijtimoiy xotiraga aylanadi¹². P. Fassell ballada janrining qat‘iy strukturasi urushning mantiqsiz o‘limlariga ma‘no beruvchi mexanizm sifatida baholaydi. Shoirning fikricha, urushning asossizligini, tartibsizligini syujet va ritm qoliplariga solsak, shu yo‘l bilan o‘quvchiga barcha urush voqelikni nazorat qilish tushunchasini gavdalanitirish mumkin. Bu jarayonda folklorik motivlar va mifologik tushunchalar urushning jirkanch realligini tushunarli qilishga, va uni badiiy shaklga keltirishga xizmat qiladi. P. Fassell urush realligini tasvirlarkan, shunday deydi:

...the problem of finding a literary order for the war’s chaos¹³

Tarjimasi:

Urush tartibsizligi (xaosi) ichidan adabiy tartib (mantiq) topish muammosi.

P. Fassell demoqchiki, urush shu darajada dahshatli va tartibsizki, uni tasvirlab berish uchun shoirga albatta bir qolip kerak. Ballada esa ana shunday qolip vazifasini o‘taydi. Bu janrdan ingliz shoiri Zigfrid Sassun va o‘zbek shoiri Hamid Olimjon ijodida ikki xil maqsadda foydalanilgan. P. Fassell nazariyasiga ko‘ra, Zigfrid Sassun ijodida urushning soxta qahramonlik mifini fosh etish uchun, Hamid Olimjon ballada orqali urushdagi tartibsizlik va o‘limni yuksak epik tartibga soladi. Ya‘ni, u urush fojiasini qahramonlik va vatanparvarlik ruhidagi tartibli hikoyaga aylantiradi. Buning uchun shoir urush manzarasini boricha (ya‘ni, mana urush bo‘ldi, askar o‘ldi, qon oqdi deya) tasvirlamaydi, aksincha, shoir bu jarayonga ritm, qofiya va ballada janrlariga tayangan holda muayyan shaklga soladi, unga ma‘no beradi. O‘quvchi tushuna oladigan tartibli san‘at asariga aylantiradi.

Janrlar tabiatini tizimlashtirishda Nortrop Frayning o‘rni beqiyos. U o‘zining “Anatomy of Criticism” (“Tanqid anatomiyasi”) asarida qahramonlarning harakat qilish qobiliyatiga ko‘ra asarlarni modlarga (holatlarga) ajratadi¹⁴. U shuni ta‘kidlaydiki, Hamid Olimjon balladalaridagi qahramon yuqori mimetik modga, ya‘ni boshqalardan kuchi va irodasi bilan ustun turuvchi epik qahramon turiga kirsa, ingliz poeziyasida (Zigfrid Sassun ijodida) ironik mod ustuvorlik qiladi,

¹¹ Камол Ж. Сувайдо. Сайланма. – Тошкент: Шарк, 2011. – Б. 244.

¹² Fussell P. The Great War and Modern Memory. – New York & London: Oxford University Press, 1975. – P. 174.

¹³ Fussell P. The Great War and Modern Memory. – London: Oxford University Press, 1977. – P. 168.

¹⁴ Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – P. 34.

bu yerda qahramon real emas, balki o'jiz va insoniy fojia qurboni sifatida tasvirlanadi¹⁵. Yuqori mimetik modga kiruvchi ushbu misralarda Fray qahramonni shunday ta'riflaydi:

If superior in degree to other men but not to his natural environment...

*He is a leader. He has authority, passions, and powers of expression far greater than ours*¹⁶.

Tarjimasi: Agar qahramon boshqa odamlardan ustun bo'lsa-yu, lekin tabiat qonunlariga bo'ysunsa... u yetakchidir. Uning vakolati va ifoda kuchi biznikidan ancha yuqori.

Bu Hamid Olimjonning "Jangchi Tursun" obraziga to'la mos keladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ironik mod sifatida sahifaning quyi qismida qahramon haqida shunday deyiladi:

If inferior in power or intelligence to ourselves,

*So that we have the sense of looking down on a scene of bondage, frustration, or absurdity...*¹⁷.

Tarjimasi:

Agar qahramon kuchi yoki ongi bilan bizdan past bo'lsa, biz uning ojizligi va mantiqsiz holatiga yuqoridan qarab turgandek bo'lsak...

Bu Zigfrid Sassoonning "The Hero" ("Qahramon") asaridagi Jek obrazini nazariy jihatdan tasdiqlaydi.

Urush adabiyotida mualliflik balladasining o'rni haqida so'z borar ekan, Hamid Olimjon va Zigfrid Sassun ijodidagi tipologik o'xshashlik birinchi navbatda qahramon obrazida namoyon bo'ladi. To'xta Boboyev ta'biri bilan aytganda, adabiyotda ijodkor hayotdagi asoslarni yoki faktlarni shunchaki bayon qilmaydi, balki ularni ma'lum bir "estetik ideal" asosida qayta ishlaydi¹⁸. Hamid Olimjon balladasida bu ideal qahramonlik va vatanparvarlikning juda yuqori cho'qqisi sifatida gavdalansa, urushning mantiqsizligini, uning tartibsizligini fosh etish orqali insoniy haqiqatni tiklash ideali Sassun ijodida o'z aksini topadi.

Hamid Olimjonning "Jangchi Tursun" balladasida biz V.M. Jirmunskiy tadqiq qilgan turkiy qahramonlik eposiga xos "Alp" obrazining zamonaviy ko'rinishini ko'ramiz. Tursun shunchaki oddiy askar emas, u xalqning umumiy irodasini o'zida mujassam etgan, o'limdan ustun turuvchi personajdir. Fray nazariyasiga ko'ra, bu yuqori mimetik modning yorqin namunasidir: qahramon o'zining jismoniy va ma'naviy kuchi bilan boshqa insonlardan va atrof-muhitdan ustun turadi¹⁹.

Aksincha, Zigfrid Sassunni o'rganar ekanmiz, P. Fassell ta'kidlagan zamonaviy xotira (modern memory) tamoyillariga duch kelamiz. Sassunning "The Hero" (Qahramon) balladasida urushning soxta romantikasi fosh qilinadi. Bu yerda qahramonlik ulug'lanmaydi, balki o'limning mantiqsizligi ko'rsatiladi. Nortrop Fray tasnifidagi ironik mod aynan shu yerda amal qiladi: qahramon o'quvchi nazarida ojiz, aldangan va urush mashinasining bir qurbonidir²⁰.

Hamid Olimjon asarida folklor motivlari (otning tasviri, jang maydonidagi tabiatning qahramon bilan hamnafasligi) asarni mifologik darajaga ko'tarsa, Sassun balladasida ballada janriga xos lo'ndalik va dramatism urushning qabih haqiqatini ko'rsatish uchun fosh etuvchi qurolga aylanadi.

¹⁵ O'sha manba – 34-b.

¹⁶ O'sha manba – 33-b.

¹⁷ Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – P. 34.

¹⁸ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 9

¹⁹ Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – P. 34.

²⁰ O'sha manba. – 35-b.

Hamid Olimjonda xalq ijodiga sodiqlik milliy g'ururni ifodalashga xizmat qilgan.

Sassunda esa, ballada janri orqali o'sha davr jamiyatining vatanparvarlik haqidagi soxta tasavvurlari ustidan achchiq kulgi (ironiya) hosil qilinadi.

O'zbek she'riyatida qahramonlikni yanada ulug'lash, ideallashtirish hamda urushni epiklashtirish tamoyillar ustuvor hisoblaniladi. Urushda qurbon bo'lmoq – oliy sharaf va oliy burchdir. Quyidagi misralarda ham Hamid Olimjon o'zining "Jangchi Tursun" ballada syujetiga ona obrazini olib kirgan. Onaning o'g'liga qarata aytgan ushbu o'gitlari asardagi qahramonlik pafosini an'anaviy folklorik epos darajasiga ko'taradi:

*Agar o'q tekkanda ham,
Oldingga qarab yiqil.
O'rtoqlaring ustingdan
Mayli, sakrab o'tsinlar...
Yov agar ajdar bo'lsa,
O'shani ham yutsinlar²¹*

Ushbu misralarda Hamid Olimjon qahramonlikning eng yuksak cho'qqisi – shonli o'lim motivini badiiy aks ettiradi. Shoir urushni shunchaki fojia emas, balki shaxsning vatan oldidagi burchi va uning milliy nomusi sifatida talqin qiladi. Oldinga qarab yiqilish detali orqali shoir hatto o'lim holatida ham dushmanga tik qarash, o'limdan qo'rqmaslik kabi g'oyalarni ilgari suradi. Shoirning badiiy niyati – o'limni go'zallashtirish orqali o'quvchiga dushmanga nisbatan adovat va o'z kuchiga ishonch hissini uyg'otishdir. Tursun obrazi shaxsiy qo'rquvini yengib, kollektiv maqsad yo'lida jon fido qilishi orqali epik boqiylikka erishadi. Natijada, shoir o'limni tugallanish deb qabul qilmaydi, balki g'alabaga qo'yilgan poydevor sifatida taqdim etadi.

Shu tariqa, Hamid Olimjon Tursun obrazida milliy dostonchilik an'analarini zamonaviy qahramonlik bilan sintez qildi.

Zigfrid Sassun ijodida bu holat butunlay boshqacha talqinda aks etadi. Shoir ballada janridan foydalanadi ammo uni ichiga qahramonlikni emas, balki urushning dahshatli, qo'rqinchli, xunuk va bema'ni tasvirlarini joylashtiradi. U qahramon deb bilgan askar aslida qahramon emas, balki qo'rqqoq yoki bema'ni o'lim topgan askar bo'lib chiqadi. Shoir ijodida ballada janri an'anaviy qahramonlik tushunchasini ironik fosh etish (demifologizatsiya) quroliga aylanadi. Bu farqni anglash uchun Sassunning "The Hero" ("Qahramon") asaridagi qahramonga qarshi talqiniga e'tibor qaratish lozim:

*Jack, in all
The wretchedness of fear, had tried to skulk
In any hole he'd found; a useless hulk.
He'd panicked and been killed. He hadn't been
A hero; and he'd never seen a fight²²*

Tarjimasi:

*Jek, bor qo'rquvi va razilligi bilan,
Topgan har qanday teshigiga yashirinishga urindi
Keraksiz bir jism. U vahimaga tushdi va o'ldirildi.
U qahramon emas edi va hech qachon jang ko'rmagan edi.*

Zigfrid Sassun ushbu satrlar orqali urush haqidagi tasvirlarni shafqatsizlarcha ochib beradi.

²¹ Хамид Олимжон. Танланган асарлар. – Тошкент: ЎзССР Давлат нашриёти, 1951. – Б. 288.

²² Sassoon S. The War Poems of Siegfried Sassoon. – London: William Heinemann, 1919. – P. 26.

Shoir urushning mantiqsizligini, ulug'vorlik yo'qligini, aksincha, urush insonni keraksiz jism (useless hulk) darajasiga tushiradigan ayovsiz, dahshatli va mantiqsiz qirg'in ekanligini aytmoqchi. Jek obrazi Hamid Olimjonning Tursuniga butunlay zid (kontrast) ravishda antiqahramon sifatida gavdalangan. Zigfrid Sassunning qahramoni urushdan tirik qolish maqsadida har qanday teshiklarga qo'rquvdan yashirinishga urinishi orqali inson ichki tuyg'ularini fojiasini ko'rsatishga harakat qiladi. Bu yerda shoirning maqsadi shuki, u urushni afsonalardan tozalamoqchi (demifologizatsiya) va uning real, jirkanch yuzini ko'rsatishga urinmoqda.

Bu yerda Nortrop Fray ta'kidlagan ironik mod (qahramon kuchsizligi, o'jizligi) ustuvorlik qiladi: qahramon epik cho'qqidan insoniy o'jizlik darajasiga tushiriladi. Sassun vatanparvarlik niqobi ostidagi yolg'onlarni fosh etish orqali jamiyatga urush ma'nosizligini tushuntiradi.

Sassun qahramonlaridan farqli o'laroq, Hamid Olimjon qahramonlari o'limni ijtimoiy burchning tantanasi deb biladilar. Quyidagi parcha o'zbek she'riyatida urush motivining naqadar ulug'vor va romantik xarakterga ega ekanligini, askarning o'limi hatto onaning sha'nini yuksaltiruvchi hodisa sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi:

Hamma desin: "Bu o'tgan

Bir botirning onasi.

Vatan uchun o'libdi

Uning yolg'iz bolasi..."

...U xursand bo'lib

Tuproqqa qo'yadi bosh²³.

Hamid Olimjon ona obrazidan qahramonning ijtimoiy burchini tasdiqlash uchun foydalanadi. Shoirning fikricha, askarning o'limi onaning sha'nini yuksaltiruvchi va millatni g'ururlantiruvchi hodisadir. Vatan tuprog'ida yosh boladek erkalanish detali o'limni ona quchog'iga qaytish kabi muqaddaslik darajasiga ko'taradi. Bu esa o'zbek she'riyatida urush motivining epik-romantik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Agar Hamid Olimjonda o'lim muqaddaslik kasb etsa, Sassun ijodida u urushning yolg'on va jirkanch, dahshatli va ma'nosiz ekanligini fosh etuvchi vositaga aylanadi. Shoir onaning samimiy ishonchi va o'g'lining ayanchli o'limi o'rtasidagi nomuvofiqlikni tasvirlash orqali urushning asl, demifologizatsiyalashgan, ya'ni afsonalardan xoli qilib ko'rsatadi:

Jack fell as he'd have wished, the Mother said...

The Mother thought him brave; but Jack was just

A boy who'd died because he'd had no trust²⁴.

Tarjimasi:

Onasi dedi: "Jack o'zi xohlagandek halok bo'ldi"...

Onasi uni botir deb o'yladi

Lekin Jek shunchaki ishonchi yo'qligi sababli o'lgan bir bola edi.

Sassunda ona obrazi – urush fojiasini chuqurlashtiruvchi vositadir. Shoir onaning yolg'on xabar bilan aldanishini tasvirlash orqali urush va jamiyat o'rtasidagi jarlikni ko'rsatadi. U urushdagi real o'lim va uyda kutilayotgan qahramonlik mifi o'rtasidagi shafqatsiz paradoksni ochib beradi. Jekning ishonchi yo'qligi uchun o'lishi uning o'limini mantiqsiz va shunchaki tasodifga aylantiradi. Bu yerda xotira muqaddas emas, balki yolg'on ustiga qurilgan og'riqdir.

²³ H. Olimjon, o'sha manba – 289-b.

²⁴ O'sha manba. – 26-b..

O‘zbek she‘riyatiga xos bo‘lgan epik-romantik an‘analar Hamid Olimjon balladasi yakunida o‘zining tugallangan shaklini topadi. Bunda qahramonning tuproq bilan yaxlitlashuvi vatan quchog‘iga qaytish motivi orqali quyidagicha badiiy ifodasini topgan:

*U juda xursand bo‘lib,
Tuproqqa qo‘yadi bosh.
Boshlari qip-qizil qon,
Go‘yo botuvchi quyosh.
...Erkalanib yotadi
U Vatan tuprog‘ida²⁵.*

Hamid Olimjon balladaning xotimasida qahramon o‘limini tabiatning abadiy aylanishi – quyosh botishi bilan qiyoslaydi. Shoir askarning vafotini fojia sifatida emas, balki xursandlik va erkalanish motivlari orqali ona quchog‘iga qaytish kabi muqaddas hodisa sifatida talqin etadi. Bu yerda V.M. Jirmunskiy ta‘riflagan epik an‘analarga xos bo‘lgan qahramonning tuproq bilan yaxlitlashuvi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoirning badiiy niyati – o‘limni estetizatsiya (go‘zallashtirish) orqali vatan uchun qurbon bo‘lishning oliy baxt ekanligi haqidagi g‘oyani tasdiqlashdir. Natijada, Tursunning qoni botayotgan quyoshga o‘xshatilib, uning ertangi kun g‘alabasi uchun zamin yaratishi uqtiriladi.

Agar Hamid Olimjonda folklor va epiklik ustuvor bo‘lsa, M. Shayxzoda balladalarini (masalan, “Kaptan Gastello”) o‘zining intellektual tahlili va ruhiy iztiroblari tasviri bilan Z. Sassun poeziyasiga yaqin turadi. Shayxzoda qahramonlari o‘z o‘limini anglagan va uni ongli tanlagan shaxslar sifatida gavdalanadi, bu esa o‘zbek balladasida ham ironik modga yaqin unsurlar mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan lirik-epik tahlillar hamda P. Fassell va N. Fray nazariyalariga tayangan holda, o‘zbek va ingliz urush davri balladasining janriy tabiatidagi bir biriga qarama qarshi unsurlarini quyidagicha umumlashtiramiz:

Tahlil mezonlari	Hamid Olimjon (“Jangchi Tursun”)	Zigfrid Sassun (“The Hero”) (“Qahramon”)
N. Fray bo‘yicha mod	Yuqori mimetik mod (boshqalardan kuchi va irodasi bilan ustun qahramon).	Ironik mod (ojiz, qo‘rqoq, aldanib qolgan va mantiqsiz o‘lim qurboni).
Qahramonning obrazi	Alp (Pahlavon) – milliy va epik ulug‘vorlik timsoli.	Anti-qahramon – urush dahshatidan qo‘rqan oddiy inson.
Urush yondashuvi	Epik-romantik (urush – vatan oldidagi muqaddas burch).	Demifologizatsiya (urushning soxta qahramonlik miflarini fosh etish).
Ona obrazi vazifasi	Qahramonlikni tasdiqlovchi va duo beruvchi siymo.	Urushning ayanchli haqiqati, dahshati va yolg‘on xabarlar o‘rtasidagi fojiviy ko‘prik.
O‘lim talqini	Estetizatsiya (o‘lim – quyosh botishi kabi go‘zal va boqiy).	Naturalistik fosh etish (o‘lim – qo‘rqov va mantiqsizlik mahsuli).
Folklor roli	An‘anaviy dostonchilik va pahlavonlik motivlarini jonlantirish.	Ballada janri orqali jamiyatdagi soxta vatanparvarlik ustidan kulgi (ironiya).

²⁵ H. Olimjon, o‘sha manba. – 291-b

Urush davri ballada janrini qiyosiy-tipologik o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu janr parokanda urush voqeligini muayyan badiiy tartibga solish vositasi bo'lib xizmat qilgan. O'zbek adabiyotida Hamid Olimjon ijodi misolida folklorik "Alp" obrazi va epik ulug'vorlik (yuqori mimetik mod) ustuvorlik qilsa, Zigfrid Sassun balladalarini urushning soxta miqlarini fosh etuvchi ironik talqini (ironik mod) bilan ajralib turadi. Maqsud Shayxzoda va Jamol Kamol asarlarida esa ballada sof epiklikdan intellektual va psixologik tahlil bosqichiga ko'tarilgan. Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz balladalarini folklor motivlarining qayta jonlanishi hamda zamonaviy adabiy tafakkur sintezi natijasida insoniyatning eng og'ir sinovlarini badiiy umumlashtirishning o'ziga xos modelini yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 560 b.
2. Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton: Princeton University Press, 1957. – 383 p.
3. Fussell P. The Great War and Modern Memory. – New York & London: Oxford University Press, 1975. – 363 p.
4. G'afurov I. Shayxzoda (Adabiy-tanqidiy ocherk). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. – 128 b.
5. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zSSR Davlat nashriyoti, 1951. – 344 b.
6. Ibrohimov M. O'zbek balladalarini. – Toshkent: Fan, 1974. – 148 b.
7. Jirmunskiy V.M. Tyurkskiy geroicheskiy epos. – Leningrad: Nauka, 1974. – 727 s.
8. Kamol J. Suvaydo. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2011. – 512 b.
9. Karimov N. Hamid Olimjon. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1979. – 136 b.
10. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997. – 320 b.
11. Sassoon S. The War Poems of Siegfried Sassoon. – London: William Heinemann, 1919. – 95 p.
12. Shayxzoda M. Tanlangan asarlar. Uch jildlik. 1-jild: She'rlar va balladalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 312 b.